

This is not registered version of TotalDocConverter
 Bi'z bu peshmeh uchun ham, men. Idha umum halif bor. Oyim bilan dadam ishlashadi. Men o'qiyman, ikkita ukam ham o'qiydi. Shuning uchun ham har bir xonada soat bor. Bittasida osma soat, bittasida budilnik... Lekin hech qaysimiz bu soatlarga qaramaymiz. Oyimlar o'zlari yurgizib tursalar ham, qaramaydilar. Hammamiz vaqtini dadamlardan so'raymiz. Ularning qo'l soatlari bor. Oddiy, lekin katta soat. Bilaklariga zo'rg'a sig'adi. Budilnikka o'xshab "jarang-juring", "jarang-juring", qilib yuradi. Bu soat buvamlarniki. Ular urushda halok bo'lganlar. Uyga qoraxat bilan shu soat kelgan. O'shanda dadam ham frontda edilar. Oyim qutichaga solib berkitib qo'yganlar. Dadam qaytib kelganlaridan keyin ham anchagacha ko'rsatmaganlar. Men tug'ilganimdan keyin ko'rsatganlar. Shundan beri qo'llaridan tushmaydi.

Ishxonadan taqdim qilishgan soatlari ham bor. Taqmaydilar. Shuni taqadilar.

Tanish-bilishlari ba'zan:

- Boshqasini taqing, eskib ketibdi-ku! - deyishadi.

Shunda:

- Bu oddiy soat emas, dadamlarniki, - deydilar. Yaqinda men texnikumga kirdim.

- Mana, - dedilar shunda qo'llaridan yechib, - katta bo'lib qoldingiz. Siz taqing.

Endi uyda vaqtini hamma mendan so'raydi. Dadamlarning o'zlari ham mendan so'raydilar. Minut, sekundigacha aytib beraman soatimga qarab. U judayam katta. Bilagimga zo'rg'a sig'adi. Budilnikka o'xshab "jarang-juring", "jarang-juring" qilib yuradi.

Raqamlariga dog' tushgan. Lekin oddiy emas, dadamlarniki.

1963